Abstract: This article discusses the application of foreign experience to increase the activity of small businesses and private entrepreneurs operating in various sectors of the national economy. Today, our government is providing small and medium-sized businesses with great opportunities. 2024 was declared the Year of Supporting Youth and Business. The emphasis is placed on attracting foreign investment for the development of small and medium-sized businesses.

Key words: national income, development of small and medium enterprises, subsidy, innovation, goods turnover, investment, macroeconomic stability, investor, gross domestic product, private sector, economic resources, capital.

Аннотация: В данной статье рассматривается применение зарубежного опыта с целью повышения активности малого бизнеса и частных предпринимателей, осуществляющих деятельность в различных отраслях национальной экономики. Сегодня наше правительство предоставляет малому и среднему бизнесу большие возможности. 2024 год объявлен Годом поддержки молодежи и бизнеса. Акцент сделан на привлечении иностранных инвестиций для развития малого и среднего бизнеса.

Ключевые слова: национальный доход, развитие малого и среднего бизнеса, субсидия, инновации, товарооборот, инвестиции, макроэкономическая стабильность, инвестор, валовой внутренний продукт, частный сектор, экономические ресурсы, капитал.

KIRISH

Hozirgi paytda jahon hamjamiyatining rivojlangan mamlakatlarida an'anaviy ilmiy-texnika taraqqiyotidan innovatsion, ilmiy-texnologik tartibga jadal o'tish jarayoni ro'y bermoqda. Ayniqsa, diversifikatsiya sharoitida bunday jarayon ko'lamini yanada kengayib borishi tabiiy. Innovatsion tartibning avvalgisidan farqi shundaki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirilishi, shakllanishi va davlat tomonidan moliyalashtirish tizimidan texnologik va ilmiy innovatsiyalarning barcha turlarini davlat tomonidan rag'batlantirishga o'tish kuzatilmoqda.

Hozirda AQSHda va xususan, G'arbiy Yevropada, eng avvalo, Fransiya va Germaniyada xususiy mulkni ko'paytirish hamda ularning moddiy-texnika bazalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning asosiy vazifasi – ilmiy va texnologik innovatsiyalar, avvalo kichik va o'rta korxonalar uchun, shuningdek, o'rta va qisqa muddatli dasturlar sohasida tezkor diversifikatsiya uchun eng qulay sharoitlarni yaratishdir.

Kichik biznesni moliyalashtirish bo'yicha AQSH jahonda etakchi o'rinlardan birini egallaydi. Yangiliklarni joriy etish jarayonlari juda tez amalga oshiriladi va ularning raqobatchilari ham topiladi. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda diversifikatsiya sharoitida ilmiy tadqiqot va muhandislik tadqiqotlarini (ITIMT) moliyalashtirishda davlatning roli juda faol bo'lib, bu faqat davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilmaydi. Xususiy korxonalar ham o'z hissalarini qo'shib boradilar.

Hozirda AQSHda federal hukumat ulushi (moliyalashtirish manbai sifatida) barcha xarajatlar salmog'ining 50 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Buyuk Britaniya, Shvetsiya va Germaniyada 40 foiz atrofida, Fransiyada 57 foiz, Yaponiyada esa 28 foizni tashkil qiladi.

Ilmiy tadqiqot ishlari va muhandislik tadqiqotlari (ITIMT) sohasini davlat tomonidan bunday e'tibor bilan qo'llab-quvvatlash qonuniydir va bir qator dalillar bilan izohlanadi. Diversifikatsiya sharoitida ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik ishlari davlat tomonidan turli shakllarda qo'llab-quvvatlanishi mumkin. Jumladan:

- Hududlarda aholi turmush tarzini yaxshilash va hududning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirish zarur. Yangi korxonalarni qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoitlar yaratilib, byudjet mablag'larini ajratish (davlat tashkilotlari orqali moliyalashtirish, shartnomalar tuzish, subsidiyalar ajratish) amalga oshiriladi. Davlat yirik xarajatlar talab qilinadigan va ko'plab xavf-xatarlarni o'z ichiga oladigan tadqiqotlarni moliyalashtirishni o'z zimmasiga oladi;



- Ilmiy-tadqiqotlarni bilvosita moliyalashtirishning turli usullari, jumladan, xususiy kompaniyalar va innovatsiya jarayonini rag'batlantirish, shuningdek, ularning investitsiyalarini yangi uskunalar xarid qilish uchun kengaytirish maqsadida soliq va amortizatsiya imtiyozlaridan foydalanish.

Davlat kichik tadqiqot biznesini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratishga ko'maklashadi. Rivojlangan davlatlarda innovatsiyalarni amalda qo'llash uchun subsidiya (grantlar) beriladi. Subsidiyalarning o'ziga xosligi quyidagilarda ifodalanadi:

- Ular kichik ijrochilarning asosiy ish joyida oladigan ish haqidan bog'liq bo'lmagan holda beriladi;
- Subsidiyalar qaytarilmaydi;
- Subsidiyani olgan olim yoki ilmiy jamoa olgan mablag'larni mustaqil sarflaydi.

AQSH davlat innovatsion siyosatining obyekti asosan xususiy biznes hisoblanadi. Masalan, AQSHda kichik biznes ishlari bo'yicha Ma'muriyat shuni belgilab qo'ygan: agar korxonalar o'z sohasida monopol mavqega ega bo'lmasa va bo'linmalardagi ishchilar bilan birga jami ishchilar soni 500 kishidan oshmasa, u kichik korxonalar hisoblanadi.

Bundan tashqari, Ma'muriyat kichik korxonalar tarmoqlari bo'yicha tasnifni ham ishlab chiqqan. Masalan, qayta ishlovchi sanoatda ishchilar soni 250 kishigacha bo'lgan korxonalar kichik korxonalar jumlasiga kiradi. Ishchilar soni 1000 kishidan ko'p bo'lgan korxonalar esa yirik korxonalar hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda iqtisodiyotning boshqa sohaslarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning miqdoriy mezonlari keltirilgan. AQSHda kichik biznes ishlari bo'yicha Ma'muriyat tomonidan ishlab chiqilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning miqdoriy mezonlari bilan o'lchanadi.

1-jadval.

Ishlab chiqaruvchilar	Ishlab chiqaruvchilar
Neftni qaytaishlas EHM Makaron va spagettilar	1500 gacha 1000 gacha 500 gacha
Ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchilar	Ishchilar soni, kishi
Sport mahsulotlari Mebel Lak-bo'yoq buyumlari	500 gacha 500 gacha 500 gacha
Chakana savdo bilan shug'ullanuvchilar	Tovar aylanmasi, 1 yilda mln.doll.
Baqqollik magazinlari Avtomabillar agentligi Restoranlar	13,5 gacha 11,5 gacha 10,0 gacha
Xizmat ko'rsatish	Tovar aylanmasi, 1 yilda mln. doll.
EHM xizmati Buxgalteriya xizmatlari Televizorlarni ta'mirlash	12,5 gacha 4,0 gacha 3,5 gacha

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, neftni qayta ishlovchilar, EHM, makaron va spagetti ishlab chiqaruvchilar, ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchilar uchun asosiy miqdoriy mezon ishchilar soni bo'lsa, chakana savdo bilan shug'ullanuvchilar va xizmat ko'rsatish sohaslari uchun tovar aylanmasi hisoblanadi.

Fransiyada kichik va o'rta tadbirkorlar umumiy konfederatsiyasi kichik va o'rta korxonalar uchun quyidagicha ta'rif beradi: "Korxonalar egasi kapitalning katta qismiga ega bo'lgan, o'z xodimlarini shaxsan nazorat qiladigan va ular bilan doimiy bevosita aloqada bo'ladigan korxonalar kichik va o'rta korxonalar deb yuritiladi."

Kichik va o'rta korxonalarining miqdoriy mezonlari quyidagilardan iborat: 10 kishidan 50 kishigacha yollanma ishchiga ega bo'lgan korxonalar kichik, 50 dan 500 gacha o'rta va 500 dan ortiq ishchiga ega bo'lgan korxonalar yirik korxonalar hisoblanadi. Germaniyada ham kichik va o'rta korxonalarining miqdoriy mezonlari Fransiyadagi kabi belgilangan.

Fransiyada, boshqa bir qator Yevropa mamlakatlarida (Germaniya, Italiya va boshqalar) kabi "hunarmand" maqomi mavjud. Odatda, ishchilar soni 10 kishigacha bo'lgan korxonalar hunarmand maqomiga ega bo'ladi. AQSHda bunday tushuncha mavjud emas, u erda bu kabi korxonalar kichik korxonalar deb yuritiladi.

Fransuz hunarmandi o'z hisobiga korxonalar tashkil etuvchi, kasbiy malakaga ega bo'lgan, o'z korxonasini shaxsan boshqaruvchi va uning ishida bevosita qatnashuvchi shaxs hisoblanadi. Hunarmand yollanma mehnatdan ham foydalanishi mumkin, biroq ularning umumiy soni, oila a'zolarini ham qo'shib hisoblaganda, 10 kishidan oshmasligi lozim. Hunarmandchilik ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyati shundaki, korxonalar egasi ham ishchi vazifasini bajaradi. Boshqacha qilib aytganda, hunarmandchilikda mulkning mehnatdan ajralishi yuz bermaydi.



Yaponiyada kichik va o'rtta korxonalar ikkita mezon bo'yicha aniqlanadi: korxonaning ustav kapitali miqdori va unda band bo'lgan ishchilar soni. Ularning miqdoriy hajmlari tarmoqlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, bir-biridan farq qiladi.

Yaponiyada kichik va o'rtta korxonalardan tashqari "parsellyar" (mitti) korxonalar tushunchasi ham mavjud. Qayta ishlash va tog'-kon sanoatida ishchilar soni 20 kishidan, chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasida 5 kishidan oshmasa, bunday korxonalar parsellyar korxonalar deb yuritiladi.

MDH mamlakatlarida kichik va o'rtta korxonalarning miqdoriy mezonni sifatida yagona ko'rsatkich – korxonada band bo'lgan ishchilar sonidan foydalaniladi.

Rossiyada kichik va o'rtta biznesning miqdoriy mezonlari quyidagicha: sanoat, qurilish va transportda band bo'lgan ishchilar soni 100 kishigacha, fan-texnika sohasida – 60 kishigacha, savdoda – 50 kishigacha, chakana va maishiy xizmat ko'rsatish sohasida – 30 kishigacha, boshqa tarmoqlar va faoliyat sohaslarida – 50 kishigacha.

2-Jadval. Yaponiyada kichik va o'rtta korxonalarining miqdoriy mezonlari.

Tarmoqlar	Ustav kapitali, mln. iena	Band bo'lgan ishchilar soni, kishi
Qayta ishlash va tog'-kon sanoati	100 gacha	300 gacha
Ulgurji savdo	30 gacha	100 gacha
Chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasi	10 gacha	50 gacha

O'zbekistonda ham kichik biznes sub'yektlarini aniqlashning mezonni ishchilar soni hisoblanadi. Fikrimizcha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini faqat bitta mezon bo'yicha aniqlash maqsadga muvofiq emas. Buning sababi shundan iboratki, yirik, ammo to'liq avtomatlashtirilgan sanoat korxonasi ko'p ishchi kuchini talab qilmaydi. Ayni vaqtda, masalan, alkogol ichimliklari ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishchilar soniga nisbatan tovar aylanmasi muhimroq ko'rsatkich hisoblanadi. Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotni yanada liberallashtirish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini yagona mezon asosida aniqlash bandlik muammosini ijobiy hal etishga aks ta'sir ko'rsatadi.

3-jadval. O'zbekistonda kichik biznes sub'yektlarini aniqlash mezonlari.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlari	Tarmoqlar	Tarmoqlar
Mikrofir-malar	Ishlab chiqarish tarmoqlarida	Ishlab chiqarish tarmoqlarida
	Xizmat ko'rsatish sohasida va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa tarmoqlarda	Ish bilan band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni
	Ulgurji, chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlarida	Ko'pi bilan – 20 kishi
Kichik korxonalar	Yengil va oziq-ovqat sanoatidagi, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochsozlik, mebel sanoati, qurilish materiallari sanoati shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat- ishlab chiqarish sohaslarida	Ko'pi bilan – 10 kishi
	Qurilish materiallari sanoati, engil va oziq-ovqat sanoatida	Ko'pi bilan - 5 kishi
	Mashinasozlik, metallurgiya, yoqilgi-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish va ularni qayta ishlash, qurilish hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat- ishlab chiqarish sohaslarida	
	Fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa sohalarda	

Fikrimizcha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini aniqlash ikkita mezon asosida amalga oshirilishi lozim: korxonada band bo'lgan ishchilar soni va yillik tovar aylanmasi. Bu kichik biznesning iqtisodiy mohiyatiga mos keladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining sifat mezonlari orasida egasining boshqaruvdagi ishtiroki ham muhimdir.



Biznes foyda olish maqsadida yangi sohalarni o'zlashtiradi, bu esa investitsiyalarni talab qiladi. Kichik biznes investitsiyalarni jalb qilish va foydalanishga moyildir, chunki o'zgaruvchan bozorda moslashuvchan bo'la oladi. Masalan, AQSh korxonalarlari Yaponiya investitsiyalari asosida rivojlandi. O'zbekistonda ham investitsiyalar savdo va maishiy xizmat sohaslariga kirib kelmoqda, ammo asosiy qismi ishlab chiqarish va sanoatga yo'naltirilmoqda. Xorijiy investitsiyalar kichik korxonalar uchun moliyaviy manba bo'lib, ko'pincha qisqa muddatli investitsiyalarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston xorijiy investorlar bilan teng iqtisodiy aloqalarni rivojlantirmoqda. Qulay investitsion iqlim yaratmasdan, bozor iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli o'tish qiyin. Respublikada xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun bir qator farmon va qonunlar qabul qilingan, bu esa iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy investitsiyalar tuzilmasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning katta qismi yoqilg'i-energetika, neft-kimyo va oltin qazib olish sohaslariga yo'naltirilmoqda.

Kichik biznes korxonalariga investitsiyalar tez qoplanadi. Xorijiy investitsiyalar asosan Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Samarqand, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlariga to'g'ri keladi. Natijada yangi texnologiyalar kiritilib, yangi ish o'rinlari yaratildi va mahsulot turlari ortdi. Kichik biznes o'z texnologiyalarini tez o'zlashtirib, ishlab chiqarishni kengaytirmoqda.

Shunday qilib, kichik biznes rivoji mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishga va xalq farovonligiga katta hissa qo'shmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI:

"Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni; O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-sonli "O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.

Bunday sharoitda ko'plab korxonalar ishchilar sonini kamaytirib ko'rsatishdan manfaatdor bo'ladilar, chunki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qonunchilik doirasida ko'plab imtiyozlar joriy qilingan bo'lib, ishchilar sonini to'liq ko'rsatish ularni bu imtiyoz va engilliklardan mahrum qilib qo'yishi mumkin. Shuni hisobga olgan holda O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini aniqlashning bir nechta mezonlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Eshov M.P., O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi: omillar, natijalar va istiqbollari. Kichik biznesning o'rni hamda ahamiyati batafsil yoritilgan. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, № 4, iyul-avgust, 2017-yil.

Yuldashev Abdusaxim Abdusaximovich maqolasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalari bo'yicha fikr bildirgan. Shuningdek, xorijiy olimlardan biri S.S. Borgayakovning fikriga ko'ra, investitsiyalar ikki jihatdan qaraladi: zaxira kategoriyasi sifatida va oqim kategoriyasi sifatida. Investitsiyaning mohiyatiga turlicha yondashuvlardan farqli ravishda, muallif ko'rsatkichlarni o'lchashning davriy jihatini bosh mezon deb hisoblaydi.

Agar investitsion ko'rsatkichlarni vaqtga bog'liq bo'lmagan holda o'lchash mumkin bo'lsa (jamg'arma hajmi, kapital mulk miqdori, mahsulot miqdori va h.k.), unda bu kategoriya zaxira hisoblanadi. Aks holda, agar ko'rsatkich vaqtga bog'liq holda o'lchansa, unda bu oqim kategoriyaga tegishlidir.

Umumqabul qilingan investitsiya (kapital qo'yilma) tushunchasi quyidagilarga to'g'ri keladi: "kapital qo'yilma" (yoki kapital sarfi) yangi qurilishga va rekonstruksiyaga sarflanadigan moliyaviy mablag'lar; harakatdagi korxonalarni texnik qayta qurollantirish va kengaytirish (ishlab chiqarishga kapital qo'yish), uy-joy, kommunal va madaniy-maishiy qurilishlar (noishlab chiqarishga kapital qo'yish).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyatini o'rganish maqsadida ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borishda mushohada, induktsiya va deduktsiya, dinamik qatorlar, iqtisodiy-statistik analiz va sintez, statistik guruhlash, monografik tadqiq etish, tizimli tahlil, taqqoslash va boshqa usullardan foydalanildi.

Bu tadbirlar orasida chet el investorlariga davlat tomonidan kafolat beruvchi yo'nalishlar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- milliy lashtirish va rekvizitsiyadan saqlangan holda siyosiy xavf-xatarlardan sug'urta qilish;
- sub'yektlarning foyda va boshqa olgan mablag'larini chet el valyutasida chegaradan (boshqa davlatlarga) o'tkazish imkoniyatini ta'minlash;
- makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda investitsiya uchun qulay muhit yaratish;



- joriy investitsiyaning keyingi holati yomonlashgan taqdirda, investitsiya kiritilgan vaqtdan boshlab qabul qilingan qonunlarning uzoq muddat davomida qo'llanilishini ta'minlash;
- investorlarning huquqlari tasodifiy holatlarda buzilgan taqdirda davlat organlari orqali keltirilgan zararlarni to'lash;
- respublika banklarida cheksiz miqdorda har qanday valyutada hisob raqamlarini ochish imkonini yaratish;
- respublika hududida sug'urta kompaniyalarini xorijiy kapital ishtirokida tashkil etish.

Chet el investitsiyasi jalb qilingan kichik biznes sub'yektlari daromadining ma'lum qismi soliقدan ozod qilinadi. Shunda kichik korxonalar soliقدan ozod qilingan mablag'larini ishlab chiqarishni kengaytirish, investitsiya va yangi texnologiyalarni joriy qilish uchun sarflaydilar.

Xususan, bu borada faoliyat ko'rsatayotgan maxsus hukumat organlari qatoriga AQShda SBA (Small Business Administration), Milliy ilmiy fond, Buyuk Britaniyada – "Kichik biznesga xizmat ko'rsatish milliy agentligi" (SBA), Germaniyada – "Kichik va o'rta biznes bosh direktorati" (DG VIII), Yaponiyada – "Kichik va o'rta tadbirkorlik agentligi" (SMEA), Vengriyada – "Tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha milliy kengash", Polshada – "Kichik va o'rta tadbirkorlik departamenti", Koreyada esa – "Kichik va o'rta biznes administratsiyasi" kiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesning mamlakat milliy daromadi, aholi bandligi, eksport va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi yuqoridir.

Barcha zarur tuzatishlar kiritildi, va "ega-kesim" qoidalariga muvofiq ravishda tuzildi.

4-jadval. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda kichik va o'rta biznes rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.

Davlatlar	Kichik va o'rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi	Kichik va o'rta biznesning umumiy bandligidagi ulushi, %	Kichik va o'rta biznesning umumiy eksport xajmdagi ulushi, %	Jami korxonalar tarkibida kichik va o'rta biznes korxonalar soni va ulushi%	
				Soni, mln.	Ulushi, %
AQSh	52,0	50,0	30,0	22,9	97,6
Kanada*	43,0	47,0	99,8
Yaponiya	51,6	80,0	40,0	4,6	99,7
Germaniya*	57,0	69,3	99,3
Frantsiya*	49,8	56,6	97,6
Italiya*	55,0	71,0	99,2
Buyuk britaniya	52,0	55,	...	4,0	99,1
Polsha	48,0	68,1	44,0	1,7	99,8
Janubiy Kareya	51,0	74,7	42,3	3,0	97,9

Yuqoridagi statistik ma'lumotlardan ko'rinadiki, rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes korxonalarining yalpi ichki mahsulotdagi hissasi o'rtacha 50-57 foizni tashkil etmoqda. MDH mamlakatlarida esa kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi rivojlangan mamlakatlarga nisbatan pastdir. Shu bilan birga, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda uni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash va hududlar miqyosida resurslarni jalb etish muammolari mavjud.

Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishi, aholi turmush darajasini yaxshilashi, va bu sohada xorij tajribasini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning mukammal va puxta ishlab chiqilgan tizimi mavjud bo'lib, bu tizim iqtisodiyotning globallashuvi, jahon moliyaviy inqirozi va raqobatning kuchayishi sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy muhitning barqaror taraqqiy etishini ta'minlaydi. Bunday holat esa davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmining to'laqonli rivojlanganligini anglatadi.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning keng ko'lamli rivojlanishi va ularning moliyaviy faoliyatini qo'llab-quvvatlash yuzasidan bir qator samarali chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular hozirda amaliy ahamiyatga egadir.

Jahon tajribasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining moliyaviy manbai bo'lib davlat va xususiy sektor hisoblanadi. AQSh, Yaponiya, Germaniya va Fransiyada ilmiy tadqiqot va texnik ishlanmalarni



moliyalashtirish uchun ajratilgan jami mablag'larning 48-72% xususiy sektorga to'g'ri keladi. Ushbu mamlakatlarda jami ilmiy tadqiqot va innovatsion ishlanmalarning 60-75% xususiy sektorda bajariladi; shu jumladan, amaliy tadqiqotlarning 70% dan ortig'i, tajriba-konstruktorlik ishlarining 90% dan ko'prog'i shu sektorda amalga oshiriladi.

Rivojlangan mamlakatlarda davlat sektori muhim manba hisoblangan bo'lsa-da, innovatsion faoliyatni amalga oshirish va moliyalashtirishda ikkinchi darajali o'rinni egallaydi. Uning ulushi ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda xususiy sektorga nisbatan 1,3-2,5 marta kamdir.

5-jadval. Jahon tajribasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik biznesini qo'llab-quvvatlash va innovatsion faoliyati rivojlanishining asosiy xususiyatlari:

Yangi maxsulot va texnologiyalarni ishlab chiqarish xarajatlarini 50 % gacha to'g'ridan to'g'ri moliyalashtiradi (Subsidiyalar, zayomlar)	Frantsiya AQSh va boshqalar
Foizsiz susudalar taqdim etiladi	Shvetsiya
Dotatsiyalar beriladi kichik biznesga kreditlar ajratishda venchur fondlaridan samarali foydalaniladi	Amalda barcha rivojlangan mamlakatlarda
Innovatsiya loyixalarni ishlab chiqarishga joriy etilishini qo'llab-quvvatlash maqsadida venchur moliyalashtirish fondlari tashkil etiladi.	AQSh, Angliya, Germaniya, Frantsiya, Shvetsariya, Niderlandiya
Yakka tartibdagi kashfiyotlar uchun davlat bojlari pasaytiriladi	Avstraliya, Germaniya AQSh, Yaponiya
Kashfiyotlar energiyani tejashga qaratilgan bo'lsa davlat bojlarini to'lashdan ozod etiladi	Germaniya, Yaponiya, Niderlandiya
Maxalliy ishlab chiqaruvchilar soliqlardan ozod etiladi, Soliqlar faqadgina eksport qilishda solinadi	Xitoy
Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash (bozorga chiqishda sheriklik topishda, axborot bilan tekin ta'minlashda, imtiyozli narxda ijaraga bino va inshootlar, kerakli asbob uskunalar taqdim etish)ga aloxida e'tibor qaratiladi	Buyuk Britaniya, Italiya
Tadbirkorlar faoliyatining dastlabki ikki yilida foizsiz kreditlar beriladi, keyingi yillarda esa juda past stavkalarda yillik foizlar undiriladi. Shu tariqa tadbirkorlar bepul boshlang'ich sarmoya bilan ta'minlanadi.	Germaniya
Kichik biznesning sug'urta qilinmagan zararlarini qoplash uchun yordam puli beriladi. Yordam puli innovatsiyalarning xaffi loyixalarni qoplaydi. Davlat bank kreditlarini olishda kafil sifatida qatnashadi.	AQSh

Yaponiyada kichik biznes katta o'rin tutadi. Kompaniyalarning 99,6 foizi kichik va o'rta korxonalar bo'lib, ular sanoatda band bo'lganlarning 80 foizini tashkil qiladi. Ko'pchilik kichik korxonalar yirik kompaniyalar bilan suppodryad tizimida ishlaydi, masalan, "Sony" 1100 kichik korxonalar bilan hamkorlik qiladi.

Yaponiya davlat ilmiy-texnika siyosatini boshqarib, sanoat rivojlanishida tashqi savdo va sanoat vazirligi muhim rol o'ynaydi. Innovatsion faoliyat davlat siyosatining asosiy yo'nalishi bo'lib, ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalarni rivojlantirishga katta ahamiyat qaratiladi.

Texnopolis loyihasi yuqori texnologiyalar asosida yangi regional markazlar yaratishga qaratilgan bo'lib, Yaponiyani texnologik etakchi davlat sifatida saqlab qolish maqsadini ko'zlaydi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Bugungi kunda O'zbekistonning hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning faolligi natijasida, bir jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM, resurslardan samarali foydalanish, sanoati rivojlangan davlatlar orasida iqtisodiy rivojlanish darajasi va aholining eng uzoq umr ko'rishi bo'yicha jahonning etakchi davlatlari qatoridan o'rin egallab turibdi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlar uchun juda ko'p imkoniyatlar yaratilgan, masalan, viloyatlarda er va binolarning, hamda davlatga tegishli noturar joylarning auksion orqali 10-20 yoki 30 yilga sotilishi tadbirkorlar uchun katta imkoniyat yaratdi. Hududlardagi tadbirkorlar bu imkoniyatlardan samarali foydalanib, o'z turmush tarzini yaxshilab bormoqdalar.

Respublikada iqtisodiy rivojlanish maqsadida xorijiy investitsiyalarni jalb etishni boshqarish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash siyosati kompleks amalga oshirilmoqda. Bu jarayonni muvaffaqiyatli olib borish uchun bir qator farmonlar, qonunlar va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ular orasida "Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tashkil qilishni rag'batlantirish chora-tadbirlari va ularning faoliyat ko'rsatishi to'g'risida"gi Prezident Farmoni ham mavjud bo'lib, ushbu me'yoriy hujjat tadbirkor va ishbilarmonlarning rejali ish olib borish istaklarini



ishonchli kafolatlash uchun huquqiy asosni yaratdi. Shu qonun-qoidalarga asoslanib, pul kreditlarining taqchiligi tufayli milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Shuningdek, davlatimiz rahbari tomonidan olib borilgan samarali boshqaruv tizimini amalga oshirish uchun viloyat va tuman rahbarlari tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida berilgan imtiyozlarni to'g'ri taqsimlashni amalga oshirishlari lozim. Iloji boricha chet el tajribasini o'zimizda qo'llab, kichik va o'rta biznesni yanada takomillashtirib rivojlantirishimiz kerak. Shundagina, aholining daromadi oshib, xalqimiz farovon yashaydi va mam-lakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ko'rish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ичитовкин Б.Н. Малые формы хозяйствования. – М.: “Экономика”, 2006. – 11 с.
2. Рубе В.А. Малый бизнес: история, теория, практика. – М.: ТеИС, 2000. – 31 с.
3. “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni; O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-sonli Farmoni.
4. Eshov M.P. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi: omillar, natijalar va istiqbollari. Mono-grafiya. – T.: “Ma'naviyat”, 2017. – 16 b.
5. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2017-yil. Maqola muallifi: Yuldashev Abduxakim Abdukarimovich.
6. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2017-yil. Maqola muallifi: Yuldashev Abduxakim Abdukarimovich.
7. Малое предпринимательство в России: прошлое, настоящее и будущее. Под ред. Б.Г. Ясина, А.Ю. Чупуренко, В.В. Буево. – М.: Фонд “Либеральная миссия”, 2003. – 137 с.
8. Администрация малого бизнеса США – АМБ, 2007. <http://www.сба.gov>
9. Национал Лифе Финансе Сорпоратион (Жапан) Статистические исследования о коммерческих учреждениях и предприятиях, 2006.
10. Small and Medium Enterprise Agency – SMEA. http://www.chusho.meti.go.jp/sme_english/index.ntml, 2006.
11. Small Business Service. <http://www.sbs.gov.uk>, Department of Trade and Industry. <http://www.dti.gov.uk>
12. Польское агентство развития предпринимательства – ПАРП. <http://www.parp.pl>, 2007.
13. The Small and Medium Business Administration – SMBA. <http://www.smba.go.kr>
14. “Деловая среда в Узбекистане глазами представителей малого и среднего бизнеса”. Отчет Международной Финансовой Корпоратсии, по итогам 2007 г. – 21 с.
15. Гойибназаров Б.К., Раҳмонов Ҳ.О. ва бошқалар. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik – мамлакат ижтимоий-иқтисодий тараққиётини юксалтириш омили. – Т.: Фан, 2011. – 184 б.
16. Малый, средний и частный бизнес. Ежеквартальный информационный бюллетень для предпринимателей. Республиканская научно-техническая библиотека ГФАГИ, 1999. – 29 с.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

